



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

YOSHLARNING IJTIMOIY MUAMMOLARINI HAL ETISHDA INDIVIDUAL VA GURUHIY YONDASHUVLARNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Jabborov Maqsud Mashrabovich

Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'smirlarning ijtimoiy muammolari tahlil qilinib, ularni hal etishda individual va guruh yondashuvlarning pedagogik ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, tarbiya jarayonida pedagogning roli, oila, maktab va jamoatchilik hamkorligining ahamiyati asoslab berilgan. Tarbiyasi qiyin o'quvchilar hamda migrant oilalar farzandlarini qo'llab-quvvatlash masalalari ko'rib chiqilib, shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy muhit ta'siri pedagogik nuqtayi nazardan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: o'smirlar, ijtimoiy muammo, tarbiya, ijtimoiy muhit, oila va maktab hamkorligi, pedagogik yondashuv, tarbiyaviy texnologiyalar, migrant oilalar, tarbiyasi qiyin o'quvchilar.

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНОГО И ГРУППОВОГО ПОДХОДОВ В РЕШЕНИИ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ МОЛОДЕЖИ

Жабборов Максуд Машрабович

Центр педагогического мастерства Джизакской области, доцент (PhD)

Аннотация

В статье проанализированы социальные проблемы подростков и раскрыто педагогическое значение индивидуального и группового подходов в их решении. Обоснована роль педагога в воспитательном процессе, а также значение взаимодействия семьи, школы и общественности. Рассмотрены вопросы поддержки трудновоспитуемых учащихся и детей из семей мигрантов. Проблемы личностного развития подростков и влияние социальной среды раскрыты с педагогической точки зрения.

Ключевые слова: подростки, социальные проблемы, воспитание, социальная среда, сотрудничество семьи и школы, педагогический подход, воспитательные технологии, семьи мигрантов, трудновоспитуемые учащиеся.

THE PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF INDIVIDUAL AND GROUP APPROACHES IN ADDRESSING SOCIAL PROBLEMS AMONG YOUTH

Jabborov Maqsud Mashrabovich

Jizzakh Regional Center for Pedagogical Excellence, Associate Professor (PhD)

Abstract

This article analyzes social problems among adolescents and highlights the pedagogical significance of individual and group approaches in addressing them. The role of the teacher in the educational process and the importance of cooperation between family, school, and community are substantiated. The paper also examines support strategies for hard-to-educate students and children from migrant families. Issues of personal development and the influence of the social environment are considered from a pedagogical perspective.

Keywords: adolescents, social problems, upbringing, social environment, family-school cooperation, pedagogical approach, educational technologies, migrant families, hard-to-educate

students.

Mamlakatimizda bilimli va malakali avlodni tarbiyalash, ularni jahon andozalariga mos ravishda voyaga yetkazish va ta'lim tizimini takomillashtirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning 2024-yil 30-sentyabrdagi pedagoglar bilan muloqotida ta'kidlanishicha, farzandlar – bu inson umrining eng aziz va muqaddas xazinasidir. Shu bois, ularning kelajakda baxtli va ma'rifatli shaxs bo'lib yetishishi nafaqat oilaning, balki butun jamiyatning ustuvor vazifasiga aylanadi.

Bugungi globallashtirish va tezkor o'zgarishlar davrida o'quvchi-yoshlarning tarbiyasi murakkab ijtimoiy va psixologik muammolar bilan bog'liq bo'lib, tarbiyasi qiyin o'quvchilar va migrant oilalar farzandlarining maktab va jamiyatga integratsiyasi alohida e'tibor talab qiladi. Ularning tarbiyasi va ta'limini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun pedagoglar, psixologlar va oilalar birgalikda ishlashi, individual yondashuvlar va ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini joriy etishi muhimdir.

Shuningdek, pedagog-psixologlarning vazifasi shundaki, yoshlarni turli ideologik va ijtimoiy xavflardan himoya qilish, ularni davlat va jamiyat qadriyatlariga mos ravishda tarbiyalashdir. Mazkur vazifa nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo'lib, ta'lim va tarbiya jarayonida innovatsion pedagogik metodlar, psixologik kuzatuv va differentsial yondashuvlarni tatbiq etishni talab qiladi.

Natijada, o'quvchi-yoshlarni tarbiyalashdagi ijtimoiy-psixologik muammolarni chuqur o'rganish va ularni samarali hal etish bugungi pedagogik tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda.

Adabiyotlar tahlili

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'smirlarni o'z vaqtida tarbiyalash va nomaqbul xatti-harakatlarning oldini olish masalasi doimo ota-onalar, maktablar, olimlar, pedagoglar va psixologlar o'rtasidagi hamkorlikni talab qilgan. Bu jarayonda nafaqat pedagogik yondashuvlar, balki jamiyatning umumiy ijtimoiy munosabati ham muhim ahamiyatga ega.[1, 30-33]

Mashhur pedagoglar A.S. Makarenko va V.A. Suxomlinskiy o'zlarining ilmiy izlanishlarini asosan o'smirlarning ijtimoiy va psixologik rivojlanishiga bag'ishlaganlar. Ular o'z asarlarida har bir bolaning shaxsiy xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda tarbiyaviy yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligini ta'kidlagan. Ayniqsa, tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan ishlashda pedagoglarning individual metodlari va psixologik qo'llab-quvvatlashi muhim hisoblanadi. [2, 80-84]

Shuningdek, ko'plab madaniy-ma'rifiy va huquqiy chora-tadbirlar orqali yoshlarni ijtimoiylashtirish va ularning salbiy xatti-harakatlarini kamaytirish masalalari belgilangan va amalga oshirilgan. V.A. Suxomlinskiyning ta'kidlashicha, "Agar yosh bolalarni tarbiyalash juda erta, ongli, rahm-shafqatli va bir ovozdan amalga oshirilsa, ota-onalar va maktab ortiqcha og'riq va iztiroblarga duch kelmaydi". Bu fikr maktab va oila hamkorligining o'smirlarning tarbiyaviy rivojlanishidagi muhim rolini yana bir bor isbotlaydi. [3, 383]

Bugungi kunda, ayniqsa, migrant oilalar farzandlari va tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan ishlashda, adabiyotlarda keltirilgan prinsiplar va metodik tavsiyalar pedagoglar uchun asosiy yo'riq sifatida xizmat qiladi. Bu esa ularni jamiyatga muvaffaqiyatli moslashtirish va ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash imkonini beradi. [4, 357-364]

Muhokama va natijalar

Ba'zi pedagoglar o'quvchi-yoshlarning tarbiyasidagi qiyinchiliklarni ularning avlodlari va irsiy xususiyatlariga bog'lashadi. Biroq, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shaxsiy xulq va tarbiya ijtimoiy muhit, oilaviy an'analar, do'stlik munosabatlari hamda jamiyatning bolaga nisbatan munosabati bilan uzviy bog'liqdir. Shu bois, tarbiyasi qiyin o'quvchilar va migrant oilalar farzandlarini faqat maxsus maktablar yoki axloq tuzatish oromgohlariga yuborish har doim ijobiy natija bermasligi mumkin. Aksincha, bola o'z jinoyatkor do'stlarining muhitida tarbiyalansa, u

jamiyatga nisbatan ishonchsizlik va ajralib qolish hissini kuchaytiradi.

Pedagogik-psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'smirlar tomonidan ma'muriy huquqbuzarliklarning oldini olish uchun o'z vaqtida bir qator choralar ko'rish zarur. Tadqiqotchilar quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratishni tavsiya qiladilar:

1. Ota-onalarning turmush tarzi va oiladagi munosabatlar – bu bolaning ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

2. Og'ir tarbiya girdobiga tushish sabablari va jamiyatga integratsiya darajasi – tarbiyasi qiyin o'quvchilarni aniqlash va ularga individual yondashuvni ishlab chiqishda asos bo'ladi.

3. Do'stlar, tengdoshlar va muloqot doiralari – o'smirlarning xulq-atvoriga, qaror qabul qilish qobiliyatiga ta'sir qiladi.

4. Fe'l-atvor, xizmatga bo'lgan munosabat va jamoada yetakchi roli – o'quvchining ijtimoiy pozitsiyasini tushunishga yordam beradi.

5. Jinoiy dunyo tuzog'iga tushish sabablarini aniqlash – profilaktik tadbirlarni rejalashtirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni samarali tashkil etishda muhimdir.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, o'quvchi-yoshlarni tarbiyalashda samarali yondashuvlar individual xususiyatlar, oilaviy va ijtimoiy muhitni hisobga olgan holda ishlab chiqilishi lozim. Shu bilan birga, tarbiyasi qiyin o'quvchilar va migrant oilalar farzandlarini qo'llab-quvvatlash orqali ularni jamiyatga muvaffaqiyatli moslashtirish mumkin. [5, 25-27]

O'qituvchining o'smirlar ijtimoiy-psixologik muammolarini oldini olishdagi roli

O'smirlarning ijtimoiy-psixologik muammolarini oldini olish va ularni hal etishda o'qituvchining roli juda muhimdir. U nafaqat namuna, yo'l boshchi va tarbiyachi, balki o'quvchilarning iste'dodlarini kashf etib rivojlantiruvchi shaxs bo'lishi kerak. Shu maqsadda o'smir o'qituvchiga ishonishi, uning samimiyligi va yordam berish niyatiga ishonch hosil qilishi lozim. Pedagog va o'quvchi o'rtasida emotsional bog'lanish yuzaga kelishi shart, chunki o'smirlar ta'sirchan bo'lib, noto'g'ri pedagogik yondashuv deviant xatti-harakatlarni rivojlantirishi mumkin.

O'qituvchining asosiy vazifalari

1. Ota-ona vazifasi – Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, noto'g'ri muhitda o'sgan yoki ota-onasining e'tiboridan mahrum bo'lgan bolalar qo'rquv va himoyasizlik hissi bilan yashaydi. Bunday vaziyatda o'qituvchi o'smir uchun ishonchli va yaqin insonga aylanishi mumkin.

2. Do'st vazifasi – O'smirlarning asosiy psixologik ehtiyojlaridan biri tengdoshlar va kattalar bilan muloqotdir. Zamonaviy pedagog o'smir va jamoa o'rtasidagi muloqotdagi qiyinchiliklarni aniqlashi va ularni bartaraf etishi zarur.

3. Tengdosh sifatida munosabat – O'smir teng huquqli munosabatni talab qiladi. Shu sababli, pedagog avtoritar yondashuvdan voz kechib, gumanistik, shaxsga yo'naltirilgan metodlarni qo'llashi kerak.

4. Mas'uliyatni shakllantirish – O'smirlarga muayyan vazifalar topshirish, masalan, sinf rahbari, madaniyat tashkilotchisi yoki sport sektori rahbari lavozimlarini berish orqali mas'uliyatni rivojlantirish mumkin.

5. Ishonchli muhit yaratish – O'qituvchi o'quvchiga yaqinroq bo'lishdan qo'rqmasligi kerak. Bunday yondashuv maktabda ishonch va hurmat muhitini mustahkamlaydi. [6, 145-149]

Tuzatish zarur bo'lgan xatolar

1. O'quvchilarni bir-birini kuzatishga majburlash, masalan, tartibbuzarliklarni xabar qilish, sinfdagi ishonch muhitini buzadi va konformizmni kuchaytiradi.

2. Ba'zi o'quvchilarni "favorit" sifatida tanlash va mukofotlash boshqalarida past o'zini baholash, ishonchsizlik va passivlikni rivojlantiradi.

3. Tartibsiz o'quvchilarni doimiy ravishda xavotirga solish, masalan, keyingi sinfga o'tkazmaslik bilan tahdid qilish, ularning maktabga va o'qituvchiga nisbatan nafratini

kuchaytiradi.

4. O'smirni shaxsiyati bilan emas, faqat xatti-harakati bilan baholash ijobiy xislatlarni inkor qiladi. Har bir bolaning ijobiy jihatlari topilib rag'batlantirilishi lozim.

5. Past baho qo'yish va jazolash o'quvchining maktabdagi maqomini pasaytiradi, nevrozlar va qo'rquv hosil qiladi. Baho bilim bahosi bo'lishi, jazolash vositasi emas.

6. Bolalarni tengdoshlar yoki aka-uka, opa-singillari bilan solishtirish ularning psixologik holatiga salbiy ta'sir qiladi. Har bir bola o'z shaxsiy rivojlanish traektoriyasiga asoslanib baholanishi kerak. [7, 27-33]

Xulosa

O'smirlik davri shaxs rivojlanishining murakkab va mas'uliyatli bosqichi bo'lib, mazkur davrda yuzaga keladigan ijtimoiy-psixologik muammolarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi nafaqat ta'lim beruvchi mutaxassis, balki tarbiyachi, yo'lbo'shchi, maslahatchi va ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlovchi shaxs sifatida ham faoliyat yuritishi zarur. [8, 70-76]. Chunki aynan pedagog o'quvchining maktab muhitidagi eng yaqin ijtimoiy hamkori bo'lib, uning shaxs sifatida shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'qituvchi har bir o'quvchini individual shaxs sifatida qabul qilishi, uning qiziqishlari, ehtiyojlari, qobiliyatlari va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashuvi lozim [9]. Individual yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayoni o'quvchining o'zini anglashiga, o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholashiga hamda ijtimoiy moslashuv jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, guruh yondashuvi orqali o'quvchilarda hamkorlik, o'zaro hurmat, ijtimoiy mas'uliyat va jamoaviylik ko'nikmalari shakllanadi. [10, 22-23]

Ijtimoiy-psixologik muammolarning oldini olishda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ishonchli, ochiq va samimiy munosabat muhim omil hisoblanadi. Bunday pedagogik muhit o'smirlarning ichki ziddiyatlarini kamaytiradi, ularda o'ziga ishonchni mustahkamlaydi hamda deviant xatti-harakatlarning oldini olishga yordam beradi. Ayniqsa, tarbiyasi qiyin o'quvchilar va migrant oilalar farzandlari bilan ishlashda pedagogning sabr-toqati, empatiyasi va kasbiy mahorati alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlardan foydalanish o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi hamda shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tarbiya jarayonining tizimli, uzluksiz va hamkorlikka asoslangan holda tashkil etilishi o'smirlarning jamiyatda munosib o'rin egallashiga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki yosh avlodning ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy va psixologik rivojlanishini ta'minlovchi muhim ijtimoiy institut vakili sifatida faoliyat yuritishi zarur. Individual va guruh yondashuvlarini uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarning ijtimoiy-psixologik muammolarini samarali bartaraf etish, ularning shaxsiy o'sishini qo'llab-quvvatlash va sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдуллаев К. Ф., Жураев Б. Т. Формирование правильной осанки ребёнка в семье // Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-3 (99). – С. 30-33.
2. Гражданкина Л. В. Психолого-педагогические подходы к воспитательной работе с подростками в современной школе // Известия Саратовского университета. Новая серия. Серия Акмеология образования. Психология развития. – 2010. – Т. 3. – №. 1. – С. 80-84.
3. Сухомлинский В.А. Сердце отдаю детям. — Москва: Просвещение, 1974. — 383 с.
4. Mashrabovich, J. M. (2025). WAYS TO DEVELOP SELF-EDUCATION SKILLS IN STUDENTS RAISED IN MIGRANT FAMILIES. AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION

AND LEARNING, 3(7), 357-364.

5. M.Jabborov. Tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan ishlash metodikasini takomillashtirish // Maktab va hayot, 2023. №8. – B. 25-27.
6. Jabborov M.M. Unique pedagogical approaches for schoolchildren with difficult upbringing // International Journal of Advance Scientific Research. — 2023. — Vol. 3, Issue 11 (November 18). — P. 145–149.
7. Ismatova H.B. O'smirlarda tarbiyasi qiyinlik tipologiyasi va ulardagi muammolarni bartaraf etishning pedagogik-psixologik usullari //American Journal of Innovation in Science Research and Development. – 2024. – T. 1. – №. 3. – C. 27-33.
8. Ismatova H. B. The content of education in the pedagogical process // Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2024. – T. 4. – №. 4. – C. 70-76.
9. Эгамбердиева Н. Ижтимоий педагогика: дарслик. — Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистан Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009.- 232 б.
10. Жураев Б.Т. Социально-духовное развитие студентов // Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития. – 2019. – С. 22-23.